

---

## 40-son DMTTDA "Quvnoqlar va zukkolar" sport musobaqasi o'tkazildi

Har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar fidoiy kasb egalaridir.

1-oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi 40-son DMTT tarbiyachilari hamda tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Quvnoqlar va zukkolar" sport musobaqasi o'tkazildi. G'oliblar tadbir tashkilotchilari tomonidan tayyorlangan medal va esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildi.











2024-09-27 15:54:11